



Dilbar XALILOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, f.f.n.
E-mail:xdilbar@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, dotsent R.Saidova taqrizi asosida

THE VITAL FOUNDATIONS OF THE EMERGENCE OF THE MOTIVE OF CRIME AND PUNISHMENT IN THE WORKS OF FYODOR DOSTOEVSKY

Annotation

In this article the fact that the vitality of the image of the poor, strange and poor bandits in the works created by F.Dostoevsky is perfectly revealed artistically, it is associated with the characteristics of humility, inferiority, inferiority inherent in the personality of the writer is illuminated.

Key words: Epistolary, literary form, spiritual and social problem, the problem of crime and punishment, the phenomenon of the writer.

ЖИЗНЕННЫЕ ОСНОВЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ МОТИВА ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ФЕДОРА ДОСТОЕВСКОГО

Аннотация

В этой статье освещается тот факт, что жизненность образа бедных, странных и убогих бандитов в произведениях, созданных Достоевским, прекрасно раскрыта художественно, она связана с чертами смирения, неполноценности, присущими личности писателя.

Ключевые слова: Эпистолярность, литературная форма, духовно-социальная проблема, проблема преступления и наказания, феномен писателя.

FYODOR DOSTOYEVSKIY ASARLARIDA JINOYAT VA JAZO MOTIVI PAYDO BO'LISHINING HAYOTIY ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada F.Dostoyevskiy yaratgan asarlaridagi qashshoq, g'arib va bechora bandalar obrazining hayotiyli badiiy jihatdan mukammal ochib berilganligi, bu adib shaxsiyatiga xos xokisorlik, bechoralik, kamsuqumlik xususiyatlari bilan bog'liq ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Epistolyar, adabiy shakl, ma'naviy-ijtimoiy muammo, jinoyat va jazo muammosi, adib fenomeni.

Kirish. Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy XIX asr rus adabiyotining gina emas, balki jahon adabiyotining, romanchilik maktabining eng taniqli va eng o'qimishli namoyandalardan biridir. Adib ijtimoiy va adabiy faoliyatining boshlanishi Rossiyada demokratik g'oyalarning faol targ'ibotchilari – Belinskiy, Gersen, Nekrasov, Saltykov-Shedrin, Dobrolyubov, Chernishevskiyilar ijodining gullagan davriga to'g'ri keldi. Demokratiya va insonparvarlik g'oyalari bo'lajak adib dunyoqarashining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1846-yilda F.M.Dostoyevskiyning dastlabki “Bechora kishilar” romani “Peterburg to'plami” majmuida bosilib chiqadi. Rossiyada Gogoldan keyin yana bir buyuk yozuvchi yetishib kelayotganidan darak berayotgan bu roman ilg'or dunyoqarashdagi kishilarga juda manzur bo'ladi. Roman Gogol boshlab bergan buyuk insonparvar adabiy an'anani – oddiy va bechora kishilar taqdirini haqqoniy ko'rsatish an'anasini davom ettirdi. Shuning uchun ham asar qahramoni Makar Devushkin obrazi Gogolning “Shinel” asaridagi Akakiy Akakiyevich Bashmachkin obraziga juda o'xshab ketadi. Biroq Dostoyevskiyning novatorligi shundaki, u har qanday og'ir sharoitda ham kambag'al va qashshoq kishilar qalbida go'zal hissiyotlar yashirilib yotganini mohirona ko'rsata olgan.

Epistolyar adabiy shaklida yozilgan bu romanda noteng kapitalistik mafkura hukmron bo'lgan shaharda yashayotgan oddiy kishilarning o'ta ayanchli va tushkun taqdiri hikoya qilinadi. O'zi oddiy kambag'al oila farzandi bo'lgan Dostoyevskiy hamisha ruhan shunday kishilar

tarafdori sifatida bu boradagi barcha qarashlarini, ezgu va dardkash fikrlarini asarlariga singdirib yuborgan edi. Binobarin, Dostoyevskiyning dunyoda “bechora bandalar yozuvchisi”, “kambag'allar homiysi” degan nomlar bilan atalishi bejiz emas. Adibning maktublaridan birida adabiy ustozlari Pushkin va Gogol haqidagi fikrida ham uning bu fazilati ifodalanganligiga guvoh bo'lamiz. “Ular (Pushkin va Gogol) shon-u shuhratni, ayniqsa, Gogol yillar davomida qashshoqlik va g'aribona kun kechirish evaziga qo'lga kiritgan”[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gogolning taqdiriga xos “qashshoqlik va g'aribona”lik Dostoyevskiy uchun ham xos bo'lgan aziyatli taqdir edi. U kamxarjlik, yetar-yetishmovchilik azobi ichra yashashi yetmagandek, erk va ozodlik yo'lidagi isyonkorona harakatlari uchun necha bora qamoq va surgun ofatlariga ham giriftor bo'ladi. Bunday aziyatli hayot yozuvchining mashhur asarlarida tasvirlangan qahramonlari talqinida unga asos bo'lib xizmat qilgan edi. Adabiyotshunoslarning uqtirishlaricha, adibning “Aka-uka Karamazovlar” romanidagi Grushenka, “Telba” asaridagi Nastasya Filippovna, “Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar” romanidagi Natasha, “Jinoyat va jazo” asaridagi Katerina Ivanovna obrazlari adibning birinchi xotini Mariya Dmitriyevna xarakteriga juda o'xshashdir. O'z navbatida, “Qimorboz” romanidagi Polina obrazi uchun F. Dostoyevskiy o'zining uchinchi xotini Apolinariya Suslovaning ayollik fazilatlarini tanlagan ekan[2].

M.Baxtinning qayd qilishicha, Dostoyevskiy ijodining hayotiyli, insoniy aziyatlarni har bir personaj ma'naviy-

axloqiy darajasiga puxta singdirib, yuksak realistik uslubga erisha olishida ham namoyon bo'ladi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Taniqli dostoyevskiyshunos olim bu bilan Dostoyevskiy asarlaridagi ezilgan bandalar ruhigacha shu qashshoqlik va azob-uqubat zahrining singib-singishib ketganligi bilan bog'liq haqqoniyatni, avvalo, bu adibga xos shaxsiy taqdir ko'rguliklarining zamin yaratganligi bilan bevosita aloqadorligini ta'kidlamochi. Baxtin yana ko'p o'rinda Dostoyevskiy yaratgan bechora bandalar o'z taqdirilaridan sira nolimasliklarini, buni Xudoning, taqdirning in'omi deya jimgina, ma'yus bo'lib yashashlarini e'tirof etadi.

Hayotdagi qaysi bir toifa, erkakmi-ayolmi, yoshmi-qarimi, arbommi yoki oddiy mehnat ahllarimi, Dostoyevskiy, avvalo, bu insonlarning odamiylik fazilatlarini sohibi ekanliklari hamda turmushda ro'shnolik ko'rmagan, ezilgan, nohaqlik va adolatsizlik qurboni bo'lgan bandalar timsolini ko'proq qalamga olganligi uning ijtimoiy-gumanitar fenomenini tushunish imkonini beradi.

Filologiya fanlari doktori Ilhom G'aniyevning yozishicha, "Ulkan ijtimoiy g'oyalar va kambag'allik, muhabbat, ruh ozodligi, o'lim hukmi hamda beqiyos iste'dod, qator uqubatlari, ijodga muhtalolik, dardi bedavo xastalik va dunyoni larzaga solgan asarlar, bemisl ulkan tafakkur va o'yin ishtiyoqi, bolalarcha beg'ubor qalb, bolalarcha injiqlik... – shularning bari bir inson siymosi va taqdirida mujassamlashgan edi. Dostoyevskiyning bebaho asarlari, tafakkur durdonalari, balki ayni shu tazodlar hosilasidir"[4].

Dostoyevskiy shaxsiyati tabiiy ravishda hokisorlik, bechoralik, kamsuqumlik xususiyatlari bilan bog'liq ekanligi boisidan ham asarlarida shu toifa bechora bandalar obrazining hayotiyiligi badiiy jihatdan ta'minlangan. Ch.Aytmatovning ziyrak tasavvuriga ko'ra, Dostoyevskiy aynan insoniyatni larzaga soladigan g'oyalar, insonparvarlik tuyg'ulari bilan ezilganlar va xo'rlanganlar uchun mislsiz qayg'urish ruhi asnosida adabiyotga kirib kelgan[5].

Dostoyevskiy qalamiga mansub "Xo'rlangan va haqoratlanganlar", "O'lik uydan maktublar" asarlarida esa adib kishilarni har qanday zulmga bardosh berishga, chidamli bo'lishga chaqiradi. Ammo bu asarning g'oyaviy qimmatini – ularning yuksak haqqoniylik va insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilganligidadir.

Jahon adabiyotida Dostoyevskiyning mashhurligi uning roman janrini, sotsial-siyosiy, falsafiy-psixologik romanning notakror namunalarini yaratganligi bilan belgilanadi[4].

Bu mashhurlik hatto nasroniylik tizimida ham yozuvchi ijodining ahamiyatini belgilashda uning "Besh buyuk kitob" deb atalgan g'oyasidan kelib chiqiladi. Bu tamoyil zamirida "Eski Ahd" asosini tashkil qiluvchi diniy kitoblarga to'plam bo'lgan "Besh kitob"ga ("Pyati knigiye") ishorati bor. Muso alayhissalomga tegishli bo'lgan mazkur beshta kitob – "Borliq" (yoki "Ibtido"), "Chiqish", "Levit", "Sonlar", "Ikkinchi qonun" kitoblari jamlangan holdagi "Tavrot" kabi muqaddas kitobni tashkil etadi.

Adabiyotshunoslar muhitida Fyodor Dostoyevskiy adabiyot olamida o'zining "Besh buyuk kitob" – "Jinoyat va jazo", "Telba", "Qimorboz", "Iblislar" va "Aka-uka Karamazovlar" romanlarini yaratgan ulkan iste'dod egasi sifatida ilohiylashtirilib, go'yoki Muso alayhissalomning ilohiy ma'naviyatiga qiyoslanadi. Aslida Dostoyevskiyning mashhurligi va ilohiy jihatdan jozibasi uning o'z g'oyalarini, obrazlari faoliyatini muqaddas kitob mohiyatiga binoan talqin etishi bilan asoslanadi.

Tahlil va natijalar. Fyodor Dostoyevskiy ijodida muhim o'rinni egallaydigan "Besh buyuk kitob" tarkibiga kiruvchi yirik asarlarning barchasi jahon romanchilik taraqqiyotining teran mahsuli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular go'yo bir-birini to'ldiradi. Adib hayotining o'ta tushkunlik va aziyatli davri mahsuli bo'lmish ushbu romanlar

mohiyatiga ko'ra yaxlit bir turkum sifatida mujassamlashgan. Eng asosiysi, bu asarlarda rus xalqining ma'naviy-ijtimoiy muammolari badiiy bo'yoqlarda ko'lamdor aks ettirilgan. Yana bir o'ziga xos jihati – bu asarlar ("Jinoyat va jazo"mi, "Aka-uka Karamazovlar"mi kabi) g'oyaviy mazusi jihatdan jinoyat va jazo muammosini o'zida mujassamlashtirgan. Dunyodagi nufuzli huquqshunoslar, u sudyami yoki tarbiyachimi, huquqshunos olimlarmi Dostoyevskiy o'z romanlari bilan sud-huquq tizimiga jiddiy ta'sir o'tkazganligini, sud yoki tergov tizimi adolatsizligini keskin fosh qilib, bu sohada poklik bilan ish yuritish saboqlarini va tanbehlarini berganligini e'tirof etganlar.

Dostoyevskiyshunos olimlar adib ijodidagi jinoyat va jazo motivlari talqinida san'atkor yozuvchi uslubidagi psixologizm, portret, tabiat tasviri kabi mahorat sirlari haqida fikr yuritganlar, albatta, har bir asar tekshirilishi jarayonida psixologizm masalasining ancha batafsil tahlillari ham e'tiborni tortadi. Xususan, yirik olimlar M.M.Baxtin va V.Y.Kirpotin F.M. Dostoyevskiy ijodi haqidagi monografik ishlarida bu adibning jinoyat-jazo tasvirida psixologik mahorat qirralarining yangidan yangi jihatlarini aniqlab berganligi ham e'tiborga molik. "Jinoyat va jazo", "Aka-uka Karamazovlar", "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar", "Bechora kishilar" singari romanlari qashshoqlik va nochorlik simfoniyasi kabi ruhiy tushkun bandalarning obrazlar galereyasi yaratilgan polotnolardir. Haqiqatdan ham F.Dostoyevskiy dunyodagi taniqli huquqshunos ijodkorlaridan ko'ra ko'proq huquqiy mavzuda asarlar yozgan va yurisprudensiyaning bir qator murakkab masalalarini badiiy talqin qilishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan. Uning butun ijodida davlat va huquq, jinoyat va jazo, odil sudlov, huquqiy kasb egalari shug'ullanadigan muammolar markaziy va yetakchi o'rinni egallaydi.

Dostoyevskiyning asarlarida o'z makon va zamoni aniq tasvirlanadi. Har bir asari o'ziga xos dunyosiga ega. Uning o'z yashash tartiboti, taraqqiysi, bularni bir-biri bilan bog'lab turguvchi ma'naviy rishtalari mavjud. Garchi yozuvchi o'z umri davomida yoki yozganlarida baxtli odamlarni nihoyatda kam ko'rgan bo'lsa-da, u buyuk gumanist sifatida har bir insonning bu yorug' olamda, albatta, baxtli-saodatli yashashini umid qilgan. Raskolnikov tipidagi ayanchli, tushkun taqdir egalari timsolini chuqur dard va hamnafaslik bilan talqin etish asnosi ularning bunchalik tushkun taqdirdan qachonlardir xalos bo'lishini ham g'oyatda istagan.

Chuqur kolliziylar ko'lamli rakursida tasvirlanishicha, Rodion aksariyat vaqtlar o'z xayollariga g'arq bo'lib yurardi, chuqur o'ylarga tolib, uy bekasiningina emas, umuman hech bir kimsani ko'rgisi kelmasdi, birov bilan yuzma-yuz uchrashib qolishdan g'oyatda cho'chir edi. Yo'qchilik bu bechorani abgor qilib tashlagandi, biroq keyingi paytlarda o'z abgorligini ham o'ylamay qo'ygandi. Rodion zarur ishlarini ham bir chekkaga surib qo'yadi. Sudxur kampir uy bekasi unga qarshi qanchalik darajada tishini qayramasin, bundan u zarracha cho'chimaydi. Lekin har qadamda zinada to'xtab, kampirning yoqimsiz ming'irlashlarini, pul so'rab g'ingshishlarini, zaharomuz do'q-po'pisa, shikoyat qilishlarini istamas, buning ustiga o'zi ham otang yaxshi, onang yaxshi deb gapga solishni, kechirim so'rashni, yolg'on gapirishni ko'ngliga sig'dirmas, aksincha bundan ko'ra yaxshisi, hech kimning ko'ziga ko'rinmaslik uchun zinadan mushukday pusib o'tib ketgani uning uchun ming marta ma'qul edi. San'atkor adibning bechora va tushkun ruhdagi yigitning bu kabi aziyatli, achinarli holatlarini, og'ir ruhiy kechinmalarini tasvirlashda zo'r badiiy mahorat namunalarini namoyish eta olgan.

"U shunchalar nochor kiyingan ediki, hamma uvadajuvada kiyim-boshiga o'rganib, ko'zi qotib ketgan odam ham

kuppa-kunduz kuni bu ahvolda ko'chaga chiqqani uyalgan bo'lar edi" [8.5].

Shu kichik ta'rif negizida ham bechoralik, bechoraligiga tamoman ko'nikkan banda psixologik holati ancha teran poetik ifodasini topgan.

Hayotda ro'shnolik ko'rmagan, biron-bir orzusiga yetolmagan dunyoning eng isqirt va ari uyasidek torgina kulbasida o'z xayol-tasavvurida olamning avra-astarini titayotgan Raskolnikov yozuvchining "Oq tunlar" qissasidagi "Zerikish naqadar fantaziyaga boy" degan yorug' fikrini amalda isbot qiladi. Rodion Nyuton yoki Napoleon kabi ulug'lar shon-shavkatini qo'msarkan, uning orzu-umidlarini notanti davr, buzuq muhit, mo'rt maqsadlar poymol qilganidan cheksiz o'rtanadi, ilojsizligidan ming bir azob iskanjasiga giriftor bo'ladi. Adib shu tariqa kambag'allik, yetar-yetishmovchilik, notenglik, oddiy maqsadlariga yetolmagan kishilar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida alamzadalik jinoyatlar tizimini paydo qilishini asoslaydi. Bu kabi alamzadalikni, ezilgan ko'ngil holatini talqin etishda yozuvchi og'ir ruhiy-psixologik tasvir imkoniyatlaridan unumli foydalangan.

Xulosa. Ma'lumki, Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy dastlab "Kambag'al kishilar" asari bilan rus adabiyotiga kirib kelgan edi. Keyinchalik jahon adabiyoti xazinasidan munosib

o'rin olgan o'nlab asarlarini yaratdi. Ularda o'z davrining eng muhim va jiddiy ijtimoiy masalalarini badiiy kuch bilan aks ettirdi.

Adib hamisha xalqning og'ir ahvoliga achinadi, uning baxt-saodati uchun tinimsiz kurashadi. U taloto'pli revolyutsion qarashlarni tanqid qiladi-yu, ammo mavjud tuzumning adolatsizliklari bilan kelisholmaydi, odamlarni ko'nikishga chaqiradi-yu, lekin insonning huquqini toptovchilar ustidan kuladi, xudoga murojaat qiladi-yu, biroq o'z asarlarida hayotning diniy tushunchalardan ustun ekanligini isbotlaydi. Yozuvchi dunyoqarashida bunday ziddiyatlarni o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotidan izlasa, masala tushunarli bo'ladi. Chunonchi, hayoti va ijodi ancha ziddiyatlar bilan bog'liq har qanday san'atkor yoki olim ham turli g'oyalar, siyosiy o'yinlar, yuqoridan aytiladigan talablar, va'dalar yolg'onligini, so'z bilan ishning bir emasligi kabi munofiqona qilg'iliklar kishini chalg'itishi tayin. Ammo bir muhim masala – xalqchilik, oddiy mehnat ahllari manfaati uchun kuyunchaklik, hayot haqiqatlarini tasvirlash, ilohiy-diniy g'oyalarga, Olloh va muqaddas kitoblarga buyuk ishonch–Dostoyevskiy olamining dunyoviy maqomini, ezgu fenomenini ta'minlagan omillar bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. Вышеславцев Б. Достоевский о любви и бессмертии. – О Достоевский. Сборник статей. -Москва, «Книга», 1990.
2. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. -Москва, «Художественная литература», 1975.
3. Кирпотин В.Я. Избранные работы в трёх томах. Том 2.- Достоевский.- М., «Художественная литература», 1978, стр.7.
4. Fyodor Dostoyevskiyning tafakkur javharlari. To'plab nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: G'aniyev I.. -Toshkent, "IJOD PRESS" nashriyoti, 2019.
5. Кулешов В.М. Жизнь и творчество Достоевского Ф.М. -М., "Детская литература", 1979.
6. Айтматов Ч. Статьи, выступления, диалоги, интервью. Изд. АПН. Москва-1988.
7. О Достоевском. Сборник статей. М., "Книга", 1990.
8. Dostoyevskiy F.M. Jinoyat va jazo. Roman. -Toshkent, "Ilm – ziyo-zakovat", 2021.